
ISSN: 3060-4613

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№11(4)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar böyiça)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport maşğulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqiçlari böyiça)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgaça ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LİMİ

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslaşgan ilmiy jurnal

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LİMİ

Elektron naşr. 116 sahifa,
18-noyabr, 2026-yil.

BOŞ MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOŞ MUHARRIR ÖRINBOSARI:
Aşurov Ramzidin Ramazonoviç – Psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGAŞI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Şoumarov Ğ.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirğizboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Şaripov Ş.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Şermuhammadov B.Ş. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qöldoşev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozoğiston)
Rejep Özyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Ça – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Ş. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi Özbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM boş muharriri, Özbekiston Respublikasida xizmat körsatgan jurnalist, filologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent
Ğafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Şomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD)
Nematov Ş.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yiça falsafa doktori (PhD)
Yuldaşeva F.I. – pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldaşeva D.B. – filologiya fanlari böyiça falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toşkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qaşqadaryo viloyati Maktabgaça va maktab ta'limi boşqarmasi boşliğining birinçi örinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bölimining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor öğli – Pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va işbilarmon" MÇJ
Hamkorlarimiz: Özbekiston Respublikasi Ta'lim va ilm-fan vazirligi, Özbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDİTORİAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali Özbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni çop etiş uçun milliy ilmiy naşrlar röyxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari böyiça: OAK Kengaşi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

• Ekspert kengaşi (29.10.2024-y., №10)

• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari böyiça: Toşkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

• Ekspert kengaşi (25.05.2025-y., №10)

• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi böyiça röyxatdan ötkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

MUNDARIJA

Zamonaviy ta'lim muhitida yoşlarni oilaviy hayotga va mas'uliyatli ota-onalikka tayyorlaşning pedagogik mexanizmlari 10
Asadova Mahliyo Nasimjon qizi

Maktabgaça ta'limda kommunikativ könikmalarni rivojlantirişda interaktiv pedagogik ta'limiy resurslardan foydalaniş metodikasi 14
Bektemirova Şevinç Şavkatjonovna

Maxsus harakatli öyinlar yordamida yoş gandbolçilarda qaror qabul qiliş tezligi va öyin tafakkurini şakllantiriş 19
Ibodullayev Suxrobek Xayrulla öğli

Pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanişini boşqarişda zamonaviy menejment yondaşuvlari 23
Qosimova Şaxnoza Mirsaidovna, Jörayeva Nargiza Tairovna

Pedagog kadrlarning individual kasbiy rivojlaniş trayektoriyasini şakllantirişning pedagogik mexanizmlari ... 27
Abduxalimova Matlyuba Abdukarimovna, Jörayeva Nargiza Tairovna

Talabalarning kasbiy axborot kompetentligini individual va tabaqalaştirilgan yondaşuvlar asosida rivojlantiriş metodikasi 31
Yölçiyev Maş'albek Erkinoviç

Sun'iy intellekt bilan muloqot va uning şaxs qadriyatlariga ta'siri 34
Nurmuxamedov Bahodir Xolpulatovich

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining raqamli kompetentligini takomillaştiriş 40
Karayev Voxid Şirinbekoviç

Boşlanğiç sinf öquvçilarining öqişga motivatsiyasini oşirişda "Kitob–Hamroh–Ovoz" integrativ modelidan foydalaniş 47
Mamasoliyeva Diyora Ilhomjon qizi, Sariyev Şarafjon Urozbayeviç

Elektron portfoliolarning ta'lim sifati bilan özaro boğliqligi va uni takomillaştirişning pedagogik imkoniyatlari 53
Kopbayeva Baxtigul Ziyadadinovna

Ta'lim oluvçilarga tabiiy fanlarni öqitişning nazariy asoslari 60
Kuyçiyeva Möjizaxon Abdumannobovna

Bölajak öqituvçilarning ma'naviy kompetentligini rivojlantiriş texnologiyasi samaradorligi 64
Mamajonov Ötkirbek Tojiddinoviç

Keys-texnologiyalarning maktabgaça ta'lim jarayonidagi imkoniyatlari 69
Omonullayeva Dilfuza Asadulla qizi

Yengil darajali aqli zaif maktabgaça yoşdagi bolalarni ertak terapiyasi vositasida ijtimoiylaştiriş metodikasi ... 73
Qöçqarova Öğiljon Umar qizi

Bölajak biologiya öqituvçilarining pragmatik fikrlaşini kasbiy-pedagogik keyslar asosida rivojlantiriş metodikasi 77
Raxmatov Uçkun Ergaşeviç

5-6 yoşli bolalarda muammoli vaziyatlarni mustaqil yeçiş qobiliyatining tarkibiy qismlari va rivojlanganlik mezonlari 84
Tillayeva Vasila Öktam qizi

Milliy pedagogik meros vositasida bölajak pedagogika öqituvçilarida gender madaniyatini rivojlantiriş 89
Xayrullayeva Nigora Jamolxonovna

Bölajak ingliz tili öqituvçilari kasbiy refleksiyasining komponent tuzilmasi va uni pedagogik amaliyotda takomillaştirişning beş blokli modeli 93
Xodjayeva Nilufar Salimovna

Talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirişga yönaltirilgan masala va maşqlar hamda ularning didaktik tavsifi 99
Xolmurodova Ozoda Suvonkulovna

Inklyuziv ta'lim yönalişi talabalarining kompetentligini rivojlantirişda raqamli ta'lim resurslaridan foydalaniş usuli 107
Kazakbayeva Mariya Alimkulovna

Birinçi kurs talabalarining jismoniy faolligini rivojlantirişda mustaqil maşğulotlarni rejalaştiriş va pedagogik nazoratning özaro boğliqligi 111
Jovshikov Mirkamol Nishonboyevich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MAXSUS HARAKATLI ÖYINLAR YORDAMIDA YOŞ GANDBOLÇILARDA QAROR QABUL QILIŞ TEZLIGI VA ÖYIN TAFAKKURINI ŞAKLLANTIRIŞ

Ibodullayev Suxrobek Xayrulla öğli
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganç davlat universiteti talabasi
suxrobbekibodullayev@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada turli yoşdagi gandbolçilarda qaror qabul qiliş tezligi va öyin tafakkurini şakllantirişda maxsus harakatli öyinlardan foydalanişning nazariy asoslari yoritiladi. Qaror qabul qilişning psixofiziologik asoslari, öyin vaziyatlari orqali örgatiş yondaşuvlari va yoş xususiyatlari tahlil qilinadi. 8-10, 11-13 va 14-16 yoşli gandbolçilar uçun harakatli öyinlar tizimi, ularni qöllaş tamoyillari va baholaş mezonlari taklif etiladi. Şuningdek, taklif etilgan tizim samaradorligini tekşiriş uçun pedagogik tajriba sxemasi bayon qilinadi.

Kalit sözlar: gandbol, harakatli öyinlar, qaror qabul qiliş, öyin tafakkuri, yoş sportçilar, taktik tayyorgarlik.

Abstract: The article provides a theoretical basis for using special movement games to develop decision-making speed and game intelligence in handball players of different ages. It examines the psychophysiological foundations of decision-making, game-based teaching approaches and age-related features. A system of movement games for the 8-10, 11-13 and 14-16 age groups is proposed, together with principles of application and assessment criteria, and a design for a pedagogical experiment to test its effectiveness is described.

Key words: handball, movement games, decision-making, game intelligence, young athletes, tactical preparation.

Аннотация: В статье теоретически обосновывается применение специальных подвижных игр для формирования скорости принятия решений и игрового мышления у юных гандболистов разных возрастов. Рассматриваются психофизиологические основы принятия решений, подходы к обучению через игровые ситуации и возрастные особенности. Предложена система подвижных игр для возрастных групп 8-10, 11-13 и 14-16 лет, методические принципы их применения и критерии оценки, а также описана схема педагогического эксперимента для дальнейшей проверки эффективности.

Ключевые слова: гандбол, подвижные игры, принятие решений, игровое мышление, юные спортсмены, тактическая подготовка.

KIRIŞ

Gandbol yuqori tezlikda, çeklangan makon va vaqt şaroitida öynaladigan jamoaviy sport turi bölib, undagi muvaffaqiyat öyinçining nafaqat jismoniy va texnik tayyorgarligiga, balki öyin vaziyatini tez baholab, töğri qaror qabul qila olişiga ham boğliq. Hujumda şerikka uzatiş, tösiqni yorib ötiş yoki darvozaga zarba beriş, himoyada esa raqibni töxtatiş yoki şerikka yordam beriş masalasi odatda soniyalar içida hal qilinadi.

Bolalar-ösmirlar sport maktablarida maşğulotlar köp hollarda texnik elementlarni takrorlaşga qaratiladi. Natijada yoş gandbolçi töpni yaxşi boşqarsa ham, murakkab öyin vaziyatida töğri tanlov qilişda qiynalişi mumkin. Bu öyin tafakkurini maxsus şakllantiriş zarurligini körsatadi. Harakatli öyinlar qaror qabul qilişni öyin vaziyatiga yaqin şaroitda, qiziqarli şaklda va yoşga mos murakkablikda maşq qiliş imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi:turli yoşdagi gandbolçilarda qaror qabul qiliş tezligi va öyin tafakkurini şakllantiriş uçun maxsus harakatli öyinlardan foydalanişning nazariy asoslarini yoritiş va metodik tizimini taklif etiş.

Maqsadga erişiş uçun quyidagi vazifalar belgilandi:

- qaror qabul qiliş va öyin tafakkuriga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qiliş;
- yoş guruhlarining qaror qabul qiliş bilan boğliq xususiyatlarini aniqlaş;
- turli yoşdagi gandbolçilar uçun maxsus harakatli öyinlar tizimini işlab çiqiş;
- ularni qöllaş tamoyillari va baholaş mezonlarini asoslaş.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING ŞARHI

Qaror qabul qilişning psixofiziologik asoslari

Harakat örganiş nazariyasida reaksiya vaqti uç bosqiçdan iborat deb qaraladi: qözğatuvçini aniqlaş, javobni tanlaş va javob harakatini dasturlaş [1]. Gandbolda eng murakkab va vaqt talab qiladigan bosqiç köpinça javobni tanlaş hisoblanadi.

V. Xik tajribalari şuni körsatganki, tanlanadigan alternativlar soni ortişi bilan tanlov reaksiyasi vaqti ham ortadi [2]. Bu yoş sportçilar uçun amaliy xulosa beradi: öyin maşqlarida tanlov variantlarini bosqiçma-bosqiç oşiriş maqsadga muvofiq.

Idrok-kognitiv könikmalar va taktik bilim

A. Uilyams va hamkorlarining tahlili şuni körsatadiki, yuqori malakali sportçilar öyin vaziyatidagi muhim belgilarga e'tibor qaratiş va raqib harakatini oldindan payqaşda kam tajribali sportçilardan ustun turadi [3].

J.-F. Grehen va P. Godbu jamoaviy sport turlarida taktik bilimni öyinçining nimani qiliş kerakligini bilişi va buni amalda bajara olişi bilan boğlab talqin qiladi [4]. Demak, öyin tafakkuri faqat nazariy tuşunça emas, balki öyin vaziyatida maşq qilinadigan könikmadir.

Vaziyatlar orqali örgatiş yondaşuvlari

K. Bayer jamoaviy sport öyinlarini örgatişda öyin vaziyatlaridan foydalanişni taklif qilgan [5].

D. Bankker va R. Torp işlab çiqqan "öyinni tuşuniş orqali örgatiş" modelida öquvçilar avval öyin ğoyasi va taktik muammoni tuşunadi, texnikani esa şu muammoni hal qiliş vositasi sifatida örganadi [6].

L. Griffin va hamkorlar bu yondaşuvni taktik öyin metodikasiga aylantirib, öyinlarni yoşga va tayyorgarlikka qarab soddalaştiriş yoki murakkablaştirişni tavsiya etadi [7].

Yoş xususiyatlari

V. Lyax koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirişda yoşga boğliq sezgir davrlarni hisobga oliş zarurligini ta'kidlaydi [8].

Jismoniy tarbiya nazariyasida ham maşq mazmuni va murakkabligi bolalarning yoş xususiyatlariga mos bölişi talab etiladi [9].

Köp yillik tayyorgarlikda bosqiçlar böyiça vazifalar özgarib borişi V. Platonov tomonidan tizimli bayon etilgan [10]. Biroq gandbol böyiça aynan qaror qabul qiliş tezligini yoş guruhlariga mos harakatli öyinlar orqali rivojlantiriş tizimi alohida işlab çiqilganligi bizga ma'lum emas. Uşbu maqolada şu masalani yoritişga harakat qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega. Unda sport pedagogikasi, harakat örganiş nazariyasi va sport psixologiyasiga oid adabiyotlarni tahlil qiliş, soliştiriş, sintez va umumlaştiriş usullaridan foydalanildi. Harakatli öyinlar tizimi qaror qabul qiliş murakkabligi (alternativlar soni, vaqt bosimi, öyinçilar soni) mezoni böyiça yoş guruhlariga moslab tuzildi.

Taklif etilgan tizimning samaradorligini tekşiriş uçun keyingi bosqiçda pedagogik tajriba ötkaziş rejalaştiriladi. Tajribada 8-10, 11-13 va 14-16 yoşli gandbolçilarning har bir guruhi tajriba va nazorat qismlariga bölinadi. Tajriba qismida 8-12 hafta davomida haftasiga 2-3 marta maşğulotning asosiy qismida 10-15 daqiqa harakatli öyinlar qöllaniladi, nazorat qismi odatiy dastur böyiça şuğullanadi. Quyidagi körsatkiçlar tajriba boşida va oxirida ölçanadi:

- tanlov reaksiyasi vaqti (signalli moslama yordamida);
- öyin vaziyatlarida qaror qabul qiliş: qarorning töğriligi va bajariliş samaradorligi, öyin körsatkiçlarini baholaş instrumenti (GPAI) böyiça [11];
- öyin vaziyatida qaror qabul qiliş vaqti (video tahlil asosida);
- koordinatsion qobiliyatlar testi.

Guruhlar örtasidagi farqlar matematik-statistik usullar (örtaça qiymat, standart oğiş, Styudent yoki Vilkokson mezoni) bilan tekşiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Harakatli öyinlarning qaror qabul qilişga ta'sir xususiyatlari

Adabiyotlar tahlili asosida harakatli öyinlarning qaror qabul qilişni rivojlantiruvçi quyidagi xususiyatlari ajratildi:

- qaror takroriy qabul qilinadi: bir neça daqiqada önlab öyin vaziyatlari yuzaga keladi, yakka maşqlarda esa bunday imkoniyat kam böladi;
- vaziyat özgaruvçan: raqib va şerikning harakati oldindan ma'lum bölmaydi, bu idrok va taxmin qiliş könikmasini maşq qildiradi;
- vaqt va makon bosimi: maydon ölçami, öyinçilar soni va vaqt çeklovi orqali murakkablik boşqariladi;
- tezkor qayta aloqa: qarorning töğri-notöğriligi öyin natijasida darhol körinadi;
- yuqori motivatsiya: öyin şakli bolalarning qiziqişini oşiradi va maşqni takrorlaşga undaydi.

Yoş guruhlariga mos harakatli öyinlar tizimi

Alternativlar soni ortişi bilan tanlov vaqti ham ortişini hisobga olib [2], öyinlar murakkabligi yoş guruhlari böyiça bosqiçma-bosqiç oşiriladi: kiçik yoşda 2-3 variantli oddiy signalli öyinlar, örta yoşda ustunlik va diqqatni taqsimlaş öyinlari, katta yoşda esa vaqt bosimi va taktik tizimlarni öz içiga olgan murakkab öyinlar tavsiya etiladi. Taklif etilgan tizim 1-jadvalda berilgan.

1-jadval: **Turli yoşdagi gandbolçilar uçun maxsus harakatli öyinlar tizimi**

Yoş guruhi	Harakatli öyin va topşiriq	Rivojlantiriladigan qobiliyat
8-10 yoş	"Rangli signal": murabbiy rangli kartoçka körsatadi, öyinçilar rangga qarab yönalişni özgartiradi yoki töpni belgilangan şerikka uzatadi (2-3 variant)	Oddiy tanlov reaksiyasi, diqqat, köriş va harakat moslaşuvi
8-10 yoş	"Böş şerikni top": kiçik maydonda 3×3 öyin, töp faqat himoyaçidan xoli turgan şerikka uzatiladi	Böş joy va şerikni köra biliş
11-13 yoş	"Ortiqça öyinçi": 3×2 va 4×3 hujum ustunligi şaroitida tezkor hujum, 2-3 variantdan tanlov	Ustunlikni baholaş, tezkor tanlov
11-13 yoş	"Ikki töp": ikki guruh bir vaqtda ikki töp bilan öynaydi, qöşimça signalga javob beradi	Diqqatni taqsimlaş va almaştiriş
14-16 yoş	"Himoyadan hujumga ötiş": töp qölga ötgan zahoti tezkor hujum, murabbiy signaliga köra himoya tizimi özgaradi	Özgarişga tez moslaşuv, taktik tafakkur
14-16 yoş	"Çeklangan vaqtli hujum": hujumni belgilangan qisqa vaqt içida yakunlaş şarti	Vaqt bosimi ostida qaror qabul qiliş
14-16 yoş	"Köp variantli hujum": himoya tizimiga (masalan, 6:0 yoki 5:1) qarab hujum kombinatsiyasini tanlaş	Taktik bilimlarni amalda qöllaş

Metodik tamoyillar

- soddadan murakkabga: avval 2-3 variant, söng köproq variant va öyinçilar soni;
- texnikani taktik vazifa bilan boğlaş: öyinçi töpni uzatişni faqat şerik tanlaş vaziyatida maşq qiladi [6; 7];
- murabbiyning savollari: "nega aynan şu şerikni tanladingiz?" kabi savollar öyinçini öz qarorini anglaşga örgatadi;
- katta yoşdagilar bilan öyin lavhalarini video orqali birgalikda tahlil qiliş;
- yuklamani nazorat qiliş: öyin davomiyligi va dam oliş yoşga mos bölişi [9];
- muntazamlik: öyinlarni alohida maşğulotlarda emas, har haftalik rejaga kiritiş.

Baholaş mezonlari

Samaradorlik uç yönaliş böyiça baholanişi tavsiya etiladi: qarorning töğriligi (öyin vaziyatlaridagi töğri qarorlar uluşi), qaror qabul qiliş tezligi (vaziyat boşlanişidan harakatgaça ötgan vaqt) va qarorning bajariliş sifati (uzatiş aniqligi, zarba natijasi). Bu mezonlar öyin körsatkiçlarini baholaş instrumenti (GPAI) ğoyalariga mos keladi [11].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Adabiyotlar tahlili şuni körsatadiki, gandbolda qaror qabul qiliş tezligi va öyin tafakkuri idrok, taktik bilim va harakat könikmalarining özaro boğliqligiga tayanadi hamda öyin vaziyatlariga yaqin şaroitda maşq qilinganda yaxşiroq şakllanadi. Maxsus harakatli öyinlar bu jarayonni yoşga mos murakkablikda va qiziqarli şaklda taşkil etiş imkonini beradi. Taklif etilgan tizimning amaliy samaradorligi pedagogik tajriba orqali isbotlanişi lozim.

Takliflar:

- maşğulot rejasiga qaror qabul qilişni rivojlantiruvçi harakatli öyinlarni muntazam kiritiş;
- öyinlar murakkabligini yoş guruhiga mos ravişda, alternativlar soni va vaqt bosimini bosqiçma-bosqiç oşirib boriş;
- murabbiylar maşğulotda texnikadan taşqari qaror sifatiga ham e'tibor qaratib, savol-javob usulidan foydalanişi;
- bolalar-ösmirlar sport maktablarida qaror qabul qiliş körsatkiçlarini davriy baholaş tizimini joriy etiş;
- keyingi tadqiqotlarda tajriba va nazorat guruhlari bilan natijalarni statistik tekşiriş.

Foydalanilgan adabiyotlar röyxati:

1. Magill R.A. Motor Learning and Control: Concepts and Applications. - New York: McGraw-Hill.
2. Hick W.E. On the rate of gain of information // Quarterly Journal of Experimental Psychology. - 1952. - Vol. 4, No. 1. - P. 11-26.
3. Williams A.M., Davids K., Williams J.G. Visual Perception and Action in Sport. - London: E & FN Spon, 1999.
4. Gréhaigne J.-F., Godbout P. Tactical knowledge in team sports from a constructivist and cognitivist perspective // Quest. - 1995. - Vol. 47, No. 4. - P. 490-505.
5. Bayer C. L'enseignement des jeux sportifs collectifs. – Paris: Vigot, 1979.
6. Bunker D., Thorpe R. A model for the teaching of games in secondary schools // Bulletin of Physical Education. - 1982. - Vol. 18, No. 1. - P. 5-8.
7. Griffin L.L., Mitchell S.A., Oslin J.L. Teaching Sport Concepts and Skills: A Tactical Games Approach. - Champaign: Human Kinetics, 1997.
8. Лях В.И. Координационные способности школьников. - Минск: Полымя, 1989.
9. Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта. - М.: Академия.
10. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и её практические приложения. - Киев: Олимпийская литература, 2004.
11. Oslin J.L., Mitchell S.A., Griffin L.L. The Game Performance Assessment Instrument (GPAI): development and preliminary validation // Journal of Teaching in Physical Education. - 1998. - Vol. 17, No. 2. - P. 231-243.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar böyiça)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport maşğulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqiçlari böyiça)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgaça ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Aşurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovçi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №11(4)

© Materiallar köçirib bosilganda "Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida körsatilişi şart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan Özbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi böyiça röyxatdan ötkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toşkent şahar, Yunusobod tumani 19-mavze, 17-uy.